Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLAR MOHIYATINI TAVSIFLOVCHI TUSHUNCHALAR

Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslar hamda ularning mohiyatini tavsiflovchi tushunchalar, ularning sanoat korxonalari iqtisodiy hayotidagi ahamiyati tadqiq etilgan. Sanoat korxonalari ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlaydigan, iqtisodiy samaradorlikka erishishning bosh omili hisoblangan iqtisodiy resurslar raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida bozor raqobatbardoshligiga erishishning muhim omillaridan biri ekanligi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: sanoat tarmog'i, ishlab chiqarish, korxona, resurslar, sanoat iqtisodiyoti, samaradorlik, iqtisodiy resurslar, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, raqamli iqtisodiyot.

Abstract: The article examines the concepts that characterize economic resources and their essence in industrial enterprises, their importance in the economic life of industrial enterprises. It is scientifically proved that economic resources that ensure the socio-economic well-being of industrial enterprises are considered the main factor in achieving economic efficiency, are one of the important factors in achieving market competitiveness in the conditions of the formation of the digital economy.

Key words: industrial sector, production, enterprise, resources, industrial economy, efficiency, economic resources, digital economy, efficient use of economic resources, digital economy.

Аннотация: В статье исследуются понятия, характеризующие экономические ресурсы и их сущность на промышленных предприятиях, их значение в экономической жизни промышленных предприятий. Научно обосновано, что экономические ресурсы, обеспечивающие социально-экономическое благополучие промышленных предприятий, считаются основным фактором достижения экономической эффективности, являются одним из важных факторов достижения рыночной конкурентоспособности в условиях формирования цифровой экономики.

Ключевые слова: промышленный сектор, производство, предприятие, ресурсы, промышленная экономика, эффективность, экономические ресурсы, цифровая экономика, эффективное использование экономических ресурсов, цифровая экономика.

KIRISH

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida qo'lga kiritilayotgan ijobiy natijalar, shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish asosida zamonaviy sanoat tarmoq va ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi, buning ta'sirida mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortib borayotgani, yaratilayotgan mahsulot va xizmat turlarining ko'payib, sifatining tubdan yaxshilanib borishi iqtisodiyotimizning yangicha mazmun va mohiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi.

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish ⁽¹⁾ rivojlantirayotgan O'zbekistonning istiqboldagi maqsadlari hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sanoat korxonalarining innovatsion va barqaror rivojlanish yo'nalishlarini aniqlab beruvchi vositalardan biri – bu mahalliy xom ashyo resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish omillari va rezervlarini aniqlash hamda ularning raqobatbardoshligini ta'minlash hisoblanadi.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarini barqaror iqtisodiy rivojlanishi, ularning faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida – iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni zarurat etmoqda. Ushbu jarayonda sanoat korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish hamda ishlab



chiqarish jarayonlari intensivligini ta'minlash, tarmoq korxonalarida iqtisodiy resurslardan tejimli foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, mehnat jarayonlarining intellektuallashuv darajasini yuksaltirish, sanoat mahsulotlar hajmi va sifatini yaxshilash, iste'mol bozori talabini to'liq qondirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, sanoat korxonalarining xalqaro bozorlardagi o'rnini oshirish va sanoat mahsulotlari eksportini ko'paytirish, ishlab chiqarishning mahalliyashtirish darajasini kengaytirish mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining maqsadlaridan biri sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Iqtisodchi olimlar tomonidan sanoat korxonalari iqtisodiy resurslarining mohiyati va shakllanish xususiyatlari, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning modellari ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatdan tadqiq etilgan.

K. Makkonell va S. Bryu asarida, "iqtisodiy resurslar" tushunchasi ostida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan barcha tabiiy, inson va inson tomonidan yaratilgan barcha turdagi resurslari tushuniladi ^[2], deb aytgan.

A. N. Azriliyan tahriri ostida chiqqan "Bolshoy ekonomicheskii slovar" lug'at manbasida esa iqtisodiy resurslar quyidagicha izohlanadi: "Ishlab chiqarish omillari mahsulot, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan elementlardir" ^[3].

R. Nureev, A. D. Smirnovlar fikricha: "Iqtisodiy resurslar (yoki ishlab chiqarish omillari) – bu iqtisodiy mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan elementlar: zamonaviy jamiyatda ulardan eng muhimi yer, mehnat, kapital (shu jumladan uni tashkil etish), tadbirkorlik qobiliyati va axborotlarni o'z ichiga oladi" ^[4] deb, tadqiq etilgan.

Rossiyalik olimlar M. K. Bunkina, V. A. Semenovlar bunday deydilar: "Sotish uchun mo'ljallangan tovarlarning katta massasi moddiy shaklga ega bo'lgan kommunal xizmatlardir. Ularni ishlab chiqarishda to'rtta asosiy omil o'zaro munosabatda bo'ladi: tabiiy resurslar, mehnat, kapital va tadbirkorlik" ^[5].

Shuningdek, B. A. Reysberg omillar iqtisodiy jarayonlarning mohiyati va samaradorligini belgilovchi parametrlar deb hisoblaydi; yaratilgan, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va sifatini oldindan belgilash, ya'ni omil ishlab chiqarish resurslari emas, balki iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatidir, deb ta'kidlaydi ^[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi va raqamli iqtisodiyotni shakllanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslar rivojlanishiga metodologik yondashuvning ilmiy asoslari, iqtisodiy resurslarni shakllantirish, iqtisodiy resurslardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari, sanoat korxonalarida ushbu resurslardan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari, sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslarni foydalanishdan olinadigan integral iqtisodiy samara, iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'nalishlari bo'yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o'rganishga tizimli va ilmiy yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi sharoitida tadbirkorlik subyektlarini samarali rivojlantirish masalasi birinchi o'rindagi dolzarb vazifa hisoblanadi. Aksariyat korxonalar faoliyatini boshqarishda innovatsiyalarni joriy qilish samaradorligining pastligi, ishlab chiqarishning yetarli darajada samarali bo'lmagan texnologiyalaridan foydalanish va juda cheklangan resurslarning oqilona taqsimlanmaganligi sababli bozorda raqobatbardosh hisoblanmaydi. Natijada, bu hozirgi iqtisodiyotning transformatsion jarayonlarga munosib javob berish, iqtisodiy mexanizmni mobil qayta qurishning mumkin emasligiga olib keladi. Ko'pincha bu holat resurslarning tuzilishi hamda ularni boshqarish mexanizmlari to'g'risida axborotlarning yetishmasligi sababli paydo bo'ladi.

Sanoat korxonasining xo'jalik faoliyati zarur ishlab chiqarish resurslariga ega bo'lgan taqdirdagina samarali rivojlanadi. Korxonalar ishining natijalari bevosita ularning ixtiyoridagi resurslarga bog'liq bo'lib, ularning yetarli miqdori ishlab chiqarish faoliyati, daromad olish hamda bozorda raqobatbardoshlikni mustahkamlash uchun zarurdir. Har bir sanoat korxonasi faqat o'ziga xos bo'lgan muayyan resurslar to'plamiga ega, shuning uchun korxona faoliyat natijalarini belgilaydigan o'z resurs tizimini ishlab chiqishi kerak. Resurslarning oqilona tizimi bo'lmasa, korxonaning o'xshash tashkilotlarga nisbatan ustunliklari va mavjud imkoniyatlar past darajada bo'ladi.

Korxonadagi resurslar tizimi ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan resurslar to'plami bo'lishi kerak, shu bilan birga mavjud resurslar harakatchanlik, bir-birini to'ldirish, o'zaro almashish talablariga javob berishi hamda ishlab chiqarishning zamonaviy tendensiyalariga mos kelishi kerak.



Respublikamiz sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi va ularning raqobat ustunligini ta'minlanishi aksariyat hollarda unda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga bog'liqdir. Shuning uchun tadqiqot jarayonida tarmoq korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etamiz.

Bugungi kunda sanoat tarmog'i iqtisodiyotning lokomotivi sifatida dinamik sektoriga aylanib bormoqda va barqaror rivojlanish tendensiyalariga ega. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda ma'lum miqdordagi resurslar (asosiy vositalar, aylanma mablag'lar, mehnat resurslari) sarflanib, mahsulot qiy-mati yaratiladi.

Ushbu tadqiqotda muayyan predmet va obyektga muvofiq sanoat ishlab chiqarishi jarayonlarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning nazariy-metodologik jihatlarini va amaliyotiga e'tibor qaratamiz. Sanoat tarmoqlari tuzilmasining o'ziga xos xususiyatlarini strategik tashkiliy yechim sifatida o'rganish iqtisodiy resurs-lardan samarali foydalanish tizimini to'g'ri aniqlash imkonini beradi.

Sanoat korxonalarini zarur resurslar bilan ta'minlash boshqaruv jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. "Resurslar" tushunchasi iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillari shakllanishining muhim kategoriyalaridan biridir. Tadqiqotchi olimlar tomonidan iqtisodiy resurslarga iqtisodiy termin sifatida korxona faoliyatining turli tomon-larini hisobga olgan holda ko'plab ta'riflar berilgan va ilmiy yondashuvlar asoslangan. Zamonaviy iqtisodiy lug'atda resurslar ishlab chiqarishni ta'minlash manbalari, vositalari sifatida talqin qilingan^[7]. Bunday yondashuv so'zning boshlang'ich mazmuniga asoslangan holda talqin etilgan: fransuz tilida "resource" – yordamchi vosita ma'nosini ifodalaydi. Bu yondashuv kategoriyaning zamonaviy iqtisodiy mazmunini ifodalamaydi.

Iqtisodchi olim A. R. Axmedjanovning fikricha, iqtisodiy resurslar – bu jamiyat (tarmoq, korxona) ixtiyorida mavjud bo'lgan hamda mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ularni iste'molchiga yetkazib berishda iste'mol jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan tabiiy, moddiy, nomoddiy va inson resurslari majmuyi his-oblanadi^[8].

R. Nureev, A. D. Smirnovlar ta'kidlaganidek: "Iqtisodiy resurslar (yoki ishlab chiqarish omillari) – bu ikti-sodiy mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan elementlar: zamonaviy jamiyatda ulardan eng muhimi yer, mehnat, kapital (shu jumladan uni tashkil etish), tadbirkorlik qobiliyati va axborotlarni o'z ichiga oladi"^[9].

Iqtisodchilar M. K. Bunkina, V. A. Semenovlar quyidagilarni ta'kidlaydi: "Sotish uchun mo'ljallangan tovar-larning katta massasi moddiy shaklga ega bo'lgan kommunal xizmatlardir. Ularni ishlab chiqarishda to'rtta asosiy omil o'zaro munosabatda bo'ladi: tabiiy resurslar, mehnat, kapital va tadbirkorlik. Bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ham xuddi shunday nuqtayi nazarga amal qilishadi"^[10].


Shunday ekan, "resurslar" tushunchasi bir qator olimlar tomonidan turlicha tushunishlarini aytishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan olimlar va tadqiqotchilar yondashuvlariga ko'ra, iqtisodiy resurslar har doim chek-langan ishlab chiqarish omili hisoblanadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Biroq barcha mualliflar iqtisodiy resurslarning umumiy xususiyati ularning ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish salohiyati degan fikrga qo'shiladilar. Shuningdek, barcha resurslar uchun umumiy xususiyat, ularning ikti-sodiy rivojlanishning ma'lum darajasida cheklanganligidir. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonida poten-sial ishtirok etadigan barcha elementlarni ishlab chiqarish resurslari deb hisoblash mumkin emas. Ko'pchilik iqtisodchi-olimlar odatda ishlab chiqarish omillarini ajratib, ularni ishlab chiqarish resurslari bilan bog'laydilar. Ushbu yondashuv bilan ishlab chiqarish resurslari haqida juda tor tushuncha yuzaga keladi. Ishlab chiqarish omillari ishlab chiqarish jarayonida haqiqatda foydalaniladigan resurslardir^[11]. Shuning uchun ishlab chiqa-rish resurslari har doim ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish imkoniyatiga ega, garchi bu majburiy shart his-oblanmasada. Bundan ko'rinadiki, ishlab chiqarish resurslari ishlab chiqarish omillariga nisbatan keng tushun-cha hisoblanadi.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslar ta'minoti ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shartdir, chunki faoliyatning o'z vaqtida va to'liqligi, mehnat unumdorligining o'sishi va xo'jalik yuritishning innovatsion usullarini qo'llash imkoniyati iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan oqilona foydalanilishiga bog'liq.

Yuqorida olimlarning qarashlari va fikrlarini tahlil qilgan holda "iqtisodiy resurslar" kategoriyasi bo'yicha mualliflik ta'rifini ishlab chiqdik: iqtisodiy resurslar – bu jamiyat (tarmoq, korxona) maqsadlariga erishish uchun ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish) jarayonida potensial foydalaniladigan cheklangan tavsifga ega tabiiy, moddiy, nomoddiy va inson resurslari majmuyi hamda iqtisodiy faoliyatning zarur tarkibiy elementlari va shart-sharoitlaridir.

Iqtisodiy resurslarning barcha turlariga xos bo'lgan xususiyat, ularning nisbatan cheklanganligi va kamyobligi hisoblanadi. Resurslarning cheklanganligi iste'mol bilan birga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini ham cheklab qo'yadi. Buning natijasida har bir korxona, mamlakat o'z imkoniyatlarini hisobga olib, tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning har bir turini birdaniga emas, uning shu davr uchun eng ke-rakli bo'lganlarini tanlab kengaytirish va rivojlantirishga ustunlik beradi, resurslarni birinchi navbatda ularga jalb qiladi^[12] (1-rasm).



1-rasm: Iqtisodiy resurslar tavsifi*

*Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bizning fikrimizcha, sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish muayyan tamoyil-larga asoslanishi lozim. Bu esa ishlab chiqarish korxonalari faoliyatida realizatsiya qilinadigan maqsad va vazifalarni bajarish jarayoni muayyan obyektiv xususiyatlar bilan bog'liq muhim qoidalarni ifodalaydi. Shunga ko'ra, sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Sanoat ishlab chiqarishining maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili. Ushbu tamoyil korxonalari maqsadlariga iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadlari bilan bog'liq ma'lum vazifalarni hal etish zaruratiga asoslanadi. Iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish jarayonida amalga oshirilishi zarur bo'lgan maqsadlar qo'yilgan vazifalarning umumiy va alohida xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlarini belgilaydi.
2. Sanoat korxonalari ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish tamoyili. Mazkur tamoyil asosan ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayonida tashqi va ichki omillar ta'sirida o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan rivojlanish jarayonini ifodalaydi. Bunda ishlab chiqarish jarayonida innovatsiyalar ulushining oshishi natijasida ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashish darajasi oshadi.
3. Sanoat korxonalarida mehnat me'yorlariga muvofiq rag'batlantirish tizimini takomillashtirish. Ushbu tamoyil ishlab chiqarish natijalariga erishishda o'nga haq to'lash bo'yicha haqqoniylikni ta'minlash imkonini beradi. Ya'ni teng mehnat evaziga teng haq to'lash imkonini beradi.
4. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi oshishini ish haqi o'sishiga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlash. Ushbu tamoyil korxonalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, tovarlarga talab va taklif o'rtasida muvofiqlikka erishish hamda iqtisodiyotda inflyatsiya jarayonlari kuchayishini bartaraf etish imkonini beradi.
5. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikka erishishning rag'batlantiruvchi tizimini joriy etish. Samaradorlashtirish strategiyasi iqtisodiyotning inqirozli holatini zudlik bilan bartaraf etish uchun barcha omillar va resurslardan yalpi tarzda foydalanish asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy yo'nalishlarini belgilashni nazarda tutadi.

Mazkur tamoyillar sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish bilan bog'liq vazifalarni hal etish yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalarida har bir resurs undan ishlab chiqarish jarayonida foydalanilganda ma'lum bir natijadorlikka ega bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, resurs keltiradigan natija o'z chegaralariga ega. Har qanday resursdan oqilona foydalanilgan taqdirda ham ma'lum chegaradan ortiq mahsulot yaratib bo'lmaydi. Shuning uchun resurslar bazasini birlashtirish integratsiyalashgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlanish strategiyasiga muvofiq holda resurslarni boshqarish tizimini yaratishni zarurat etadi.



Fikrimizcha, resurslarni boshqarishning muhim vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: integratsiyalashgan tadbirkorlik tuzilmalarini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq holda resurslar bazasini shakllantirish; resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlari va alohida biznes tuzilmalari o'rtasida resurslarni oqilona taqsimlash; resurslar ta'minotini nazorat qilish; tashqi muhit omillarining salbiy ta'sirini kamaytirish.

Asosiy vositalar – ishlab chiqarish jarayonida qayta-qayta ishtirok etadigan mehnat vositalari; o'z qiymatini yaratilgan mahsulot, tovar, ish, xizmatga bo'lib-bo'lib o'tkazadi; o'z tabiiy-moddiy shaklini o'zgartirmaydi. Korxona asosiy vositalarini shakllantirish manbalari: o'z va unga tenglashtirilgan mablag'lar – ustav kapitali, amortizatsiya ajratmalari, kapital qo'yilmalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan foydaning bir qismi; budjet ajratmalari; qarz mablag'lari – banklardan olingan uzoq muddatli kreditlar, lekin bu faqat investitsiyalar foydalilik (daromadlilik) darajasi yuqori bo'lgan loyihalarga kapital qo'yilmalar uchun amal qiladi.

Aylanma vositalar – bu bir xo'jalik aylanmasini amalga oshiruvchi, o'z qiymatini tayyor mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatga to'liq o'tkazadigan va ishlab chiqarish jarayonida o'z shaklini doimiy o'zgartiradigan ishlab chiqarish vositalaridir. Iqtisodiy mazmuni va tarkibiga ko'ra, aylanma mablag'lar zaxira, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqa turdagi mablag'larga (pulsiz shakllarga, qimmatli qog'ozlarga) bo'linadi.

Mehnat resurslari – korxonada band bo'lgan xodimlarning umumiy soni – aholining iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida band bo'lgan yoki unda ishlay oladigan qismini ifodalaydi. Mehnat resurslari boshqa barcha turdagi korxona resurslaridan tubdan farq qiladi, chunki ular resurslarning faol qismi bo'lib, ishlab chiqarishda yetakchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni.
2. Макконнелл К. Р., Брю С. Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика: пер. с англ. В 2 т. – М.: Республика. – Т. 1. – 1992. – 339 с.; т. 2. – 1992. – 400 с.
3. Большой экономический словарь / Под ред. А. Н. Азрилияна. 2-е изд. доп. и пер. – М.: Институт новой экономики, 1997. – С. 776.
4. Нуреев Р. М. Микроэкономика: учебник для вузов. – М.: Норма: ИНФРА – М., 1999. – 440 с.
5. Бункина М. К. Национальная экономика: Учебн. пособие. – М.: Дело, 1997. – 272 с.
6. Курс экономики: Учебник. – 3-е изд., доп. / Под. Б. А. Райзберга. – М.: ИНФРА – М., 2001. – 716 с.
7. Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Современный экономический словарь – 2-е изд., испр. – М.:ИНФРА – М., 1999. – 478 с.
8. Axmedjanov A. R. Xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish. Diss. Iqtisodiyot fanlaridan PhD. – Samarqand: SamISI, 2021. 17-b.
9. Нуреев Р. М. Микроэкономика: учебник для вузов. – М.: Норма: ИНФРА – М., 1999. – 440 с.
10. Бункина М. К. Национальная экономика: Учебн. пособие. – М.: Дело, 1997. – 272 с.
11. Евдокимова М.А. Экономика производства. Экономические ресурсы производства: –СПб.: СПбЛТА, 2001, –68 с.
12. Axmedjanov A. R. Xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish. Diss. Iqtisodiyot fanlaridan PhD. – Samarqand: SamISI, 2021. 17-b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.